

DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Muallif: O'zbekiston davlat jahon tillari akademik litseyi
1-kurs o'quvchisi*

Eshatova Mohinur Dilmurod qizi
Ilmiy rahbar :

Dustmurodova Zilola Xaqnazarovna
Razzakova Munisa Axadovna

Annotatsiya: *Barcha davlatlar singari O'zbekiston ham rivojlanmoqda . Har bir davlat o'zining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqaruv tizimi , o'z ramzlariga ega . Hozirgi davrda, bir muncha rivojlangan va yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra har bir millat jahon ham jamiyatida munosib o'rinnegallaydi, katta va uzoq muddatli maqsadlarni qo'yishga va ularga erishishga qodir. Ushbu maqola har bir kasbda , sohada yuksak yutuqlarga erishish uchun davlat boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish haqida foydali va muhim ma'lumotlarni ifoda etadi.*

Kalit so'zlari: *Davlat boshqaruvi, Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi, Jamoat boshqaruvi tizimi, hamkorlik, xalqaro tajriba, demokratlashtirish.*

KIRISH

Davlat — jamiyatning oliy siyosiy instituti bo'lib, shu jamiyat yashayotgan mamlakat fuqarolari manfaatini himoya qilish uchun o'rnataladi. Davlatlar mamlakat chegaralarini himoya qiladi, boshqa mamlakatlar bilan aloqada bo'ladi, qonunchilik bilan shug'ullanadi va hokazo. Mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilib, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma hisoblanadi. Davlat jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi. Jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat idoralari va muassasalari tizimi. Davlat idorasi davlat mexanizmini qonunga muvofiq ravishda o'z tuzilishiga , ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo'yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo'lgan hamda davlat mexanizmining boshqa qismlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismidir.

Davlat boshqaruvini yanada ko'proq rivojlantirish uchun yurtimizda ko'plab qonunlar ishlab chiqilmoqda, bunga misol qilib "Kosmik tarmoqni yanada rivojlantirish bo'yicha chora tadbirdilar to'g'risida "gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra kosmik monitoring ishlarini amalga oshirish va davlat boshqaruv organlarini kosmik suratlar bilan ta'minlash , shuningdek kosmik texnologiyalarni qo'llash oraqlari ijtimoiy -iqtisodiy, ilm- fan, mudofaa va xavfsizlik sohalarida kosmik faoliyat natijalaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqida bugun jahon miqiyosida yurtimiz haqida so'z ketganda, "Yangi O'zbekiston" iborasi tilga olinayotgani , bu keying yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofi ekanini alohida ta'kidladi. Darhaqiqat keyingi vaqtarda

mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar o'z mevalarini bera boshladi. O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renesans davriga poydevor yaratilmoqda . Mazkur yangilanishlar davlat boshqaruв tizimining samaradorligini oshirishga qaratilganligi bilan ham alohida ahamiyatga ega . Yangi O'zbekistonda demokratik davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak " degan yuksak g'oyaga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. Bu borada hozirga qadar qilingan say harakatlarni tahlil etsak , quyidagi muhim jihatlarni ko'rishimiz mumkun

1.Xalq bilan muloqot qilish , insonlar dardi , muamolarini tezkor hal qilishning sifat va mazmun jihatdan mutlaqo yangi tizimi yaratildi.

2.Jahon andozasi bo'lган "tarozilar pallasi " (check and balances) tamoyilining amalda o'z aksini topishiga erishildi.

3. Nomarkazlashtirish siyosati namunasi o'larоq " hududlardagi muamoni eng avvalo o'sha hududda ishlaydigan va yashaydigan insonlar yaxshi hal qila oladi" degan fikrdan kelib chiqqan holda davlat apparatining institutsional tizimi qayta ko'rib chiqilib , uni optimallashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha muhim islohatlar olib borildi.

4. Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimiga innovatsion yondashuv joriy etilib , fuqorolarga nisbatan byurokratik sansolarlik, sarsongarchilik holatlarini tubdan isloh qilishda katta qadamlar tashlandi. Bu davlat organlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Davlat xizmatlarini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni muhim ahamiyatga ega. Qonunga muvofiq, davlat organlari faoliyatining samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, jumladan, statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziya, ruxsatnoma, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek, davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish kabilar belgilangan. Tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, internet orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek, kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish masalalari ham ko'zda tutilgan.

Ushbu vazifalarning ijrosi ustidan parlament nazoratini ta'minlash maqsadida parlament quyi palatasining Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunning tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini "bir darcha" tamoyili asosida ko'rsatilishi bilan bog'liq talablarining ijro etilishi holati tanlov asosida Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Farg'ona, Namangan, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahrining bir nechta tumanida o'rganildi.

O'rganishlar chog'ida "yagona darcha" markazlari faoliyatida amalga oshirilgan ishlar bilan birga, yechimini kutayotgan qator masalalarning mavjudligi aniqlandi. Mazkur holatlarni bartaraf etish maqsadida Adliya vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mas'ul xodimlarining axboroti eshitilib, qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq, Adliya vazirligiga tuman va shaharlarda faoliyat yuritib

kelayotgan "yagona darcha" markazlarining moddiy- texnika ta'minotini yanada yaxshilash bo'yicha choralar ko'rish, Vazirlar Mahkamasiga tadbirkorlik subyektlarini muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga tayyor holda ulash tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif kiritish, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf etish, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish hisobiga davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" markazlari tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatishda undiriladigan to'lovlar bo'yicha yagona reglament ishlab chiqish va boshqa vazifalar yuklatildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda. Bu, albatta, aholining huquq va manfaatlari ta'minlanishiga, investitsiya jozibadorligiga hamda ishchanlik muhitining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, fikrimning yakuniy qismida, shuni ta'kidlash joizki, o'zbek xalqi azaldan mehnatkash, vatanparvar, iymonli, ilmli va dono xalq hisoblangan. Tarixdan ma'lumki, buyuk bobolarimiz hukmdor bo'lib, o'z davrida davlatni boshqaruv tizimini mustaxkam va tartibli tarzda boshqarishgan. Xususan, ikkinchi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ko'plab say-harakatlari, oliy maqsadlar sari vatanimizning taraqqiyoti uchun tun-u kun tinmasdan mehnat qilmoqdalar. Bunday harakatlarning natijasi albatta davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirishda ulkan poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yaqin yillarda, rivojlangan davlatlar boshqaruv tizimi bilan teng kela oladigan O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv tizimi eng samarador, musathkam va yetakchi tizimlar qatoridan joy oladi.

REFERENCES:

1. Islom Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. -T; 2010, 8-bet.
2. Yusupov E. va boshq. Ijtimoiy boshqaruv tizimi evolyutsiyasi va davlatning shakllanishi. –T 75-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev. Biz jasur va oljanob xalqimiz bilan erkin va obod, demokratik O'zbekiston davlatini ko'ramiz! 2016 yil 15 dekabr
4. Islom Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. -T. 12-13-bet.
5. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlari -mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligi, 2016 yil 8-dekabr
6. Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot sari. 6-jild -T; 1998 S. 28-29.